
QONUNCHILIKDAGI YANGILIKLAR



Qonunchilikdagi yangiliklar

Davlat ijrochisi faoliyati yuzasidan shikoyatlar faqat ma'muriy sudlar tomonidan ko'rib chiqiladi

Davlat organlari bilan munosabatlarda fuqarolar va tadbirkorlar huquqlarining samarali himoyasini ta'minlash maqsadida Prezident tomonidan imzolangan Qonun (O'RQ-833-son, 26.04.2023 y.) bilan ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritildi.

Jumladan, Jinoyat-protsessual kodeksiga kiritilgan qo'shimchaga ko'ra, kassatsiya instantsiyasi sudi mansabdor shaxslarning e'tiborini surishtiruv, dastlabki tergov va sud muhokamasi jarayonida yo'l qo'yilgan kamchiliklarga qaratish zarur bo'lganda xususiy ajrim chiqaradi.

"Sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini ijro etish to'g'risida"gi Qonunga kiritilgan o'zgartishga ko'ra:

Davlat ijrochisining har qanday qarorlari yoki harakatlari ustidan shikoyat faqat ma'muriy sudga yoxud bo'ysunuv tartibida yuqori turuvchi organga, mansabdor shaxsga beriladi.

B. Enazarov - So'x tuman adliya bo'limi boshlig'i

[Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating](#)

[Facebook](#) | [Telegram](#) | [Telegram murojaat](#) | [Youtube](#) | [Instagram](#)

2023-05-03 16:00:21